



## IDROK VA TIL: LINGVISTIK ANTROPOMORFIZM TURLARI VA ULARNING FUNKSIYASI

**Yusupova Adiba Matlubovna,**

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti*

[adibawka@gmail.com](mailto:adibawka@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17903928>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola lingvistik antropomorfizmning grammatik, semantik, pragmatik, stilistik va diskursiv ko'rinishlarini real nutq materiallari asosida tahlil qiladi. Badiiy matnlar, publitsistik materiallar, kundalik nutq va mediatekstlar misolida antropomorfik ifodalarning ishlatilish mexanizmlari va ularning idrokiy hamda madaniy omillar bilan bog'liqligi o'rganildi. Tadqiqot natijalari antropomorfizmning murakkab mazmunlarni soddalashtirish, obrazlilik yaratish, muloqotning emotsional ta'sirchanligini oshirish kabi funksiyalarni bajarishini ko'rsatdi. Maqola til va ong o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yoritib, antropomorfizmning kommunikativ va madaniy jarayonlardagi ahamiyatini ilmiy asosda ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** lingvistik antropomorfizm, grammatik antropomorfizm, semantik antropomorfizm, pragmatik antropomorfizm, stilistik antropomorfizm, diskursiv antropomorfizm, idrok, madaniyat, metafora, kommunikativ vazifa.

**Аннотация:** В статье анализируются грамматическая, семантическая, прагматическая, стилистическая и дискурсивная формы лингвистического антропоморфизма на основе материалов художественной литературы, публицистики, повседневной речи и медиатекстов. Исследование выявляет механизмы использования антропоморфных выражений и их связь с когнитивными и культурными факторами. Полученные результаты показывают, что антропоморфизм способствует упрощению сложных смыслов, формированию образности и усилению эмоционального воздействия текста. Работа освещает взаимосвязь языка и сознания, раскрывая культурное и коммуникативное значение антропоморфизма в современном дискурсе.

**Ключевые слова:** лингвистический антропоморфизм, грамматический антропоморфизм, семантический антропоморфизм, прагматический антропоморфизм, стилистический антропоморфизм, дискурсивный антропоморфизм, когниция, культура, метафора, коммуникативная функция.

**Abstract:** This article examines the grammatical, semantic, pragmatic, stylistic, and discursive forms of linguistic anthropomorphism based on materials from literary texts, journalistic discourse, everyday speech, and media content. The study identifies the mechanisms through which anthropomorphic expressions operate and explores their connection to cognitive and cultural factors. The findings demonstrate that anthropomorphism serves to simplify complex meanings, create vivid imagery, and enhance the emotional impact of discourse. The article highlights the interplay between language and cognition, revealing the cultural and communicative significance of anthropomorphism in contemporary linguistic practice.

**Keywords:** linguistic anthropomorphism, grammatical anthropomorphism, semantic anthropomorphism, pragmatic anthropomorphism, stylistic anthropomorphism, discursive anthropomorphism, cognition, culture, metaphor, communicative function.

**Kirish.** Til va idrok inson tafakkuri va madaniyatining eng muhim elementlaridir. Til nafaqat muloqot vositasi, balki insonning dunyoqarashi, tafakkuri va hissiy tajribasini aks ettiruvchi vositadir. Shu nuqtayi nazardan, lingvistik antropomorfizm fenomeni til va idrok



o'rtasidagi bog'liqlikni namoyon qiladi. Lingvistik antropomorfizm – insoniy fazilatlarni til orqali inson bo'lmagan obyektlar, hodisalar yoki tushunchalarga yuklash jarayoni. U idrokni soddalashtirish, murakkab hodisalarni tushunishni osonlashtirish va madaniy kontekstni saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada lingvistik antropomorfizmning asosiy turlari, ularning idrok va til funksiyalari, shuningdek, turli kontekstlarda qo'llanilishi tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Lingvistik antropomorfizm fenomeni so'nggi yillarda tilshunoslik, kognitiv fanlar va madaniyatshunoslikda keng o'rganilgan. Tadqiqotchilar bu hodisani inson tafakkuri va idroki bilan uzviy bog'liq deb hisoblaydilar. Lakoff va Johnson (1980) antropomorfizmni metaforik idrokning asosiy mexanizmi sifatida tushuntiradi; ular ta'kidlaydiki, inson murakkab yoki mavhum hodisalarni tushunish uchun o'z tajribasiga tayangan holda ularni insoniy fazilatlar bilan bog'laydi[1]. Shu nuqtayi nazardan, lingvistik antropomorfizm til orqali idrokni soddalashtirish va murakkab hodisalarni tushunishni osonlashtirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Madaniy kontekstga e'tibor qaratgan Tomas (1995) antropomorfizmni jamiyat va madaniyat qadriyatlarini orqali izohlaydi[2]. Unga ko'ra, turli madaniyatlarda obyektlar va hodisalarni insoniy fazilatlar bilan ifodalash usullari farq qiladi. Masalan, G'arb adabiyotida hayvonlar ko'pincha insoniy fazilatlarni ramz sifatida ifodalaydi, Sharq adabiyotida esa tabiiy elementlar – shamol, daraxt, suv – insoniy xatti-harakatlar bilan bog'lanadi. Bu shuni ko'rsatadiki, lingvistik antropomorfizm faqat idrok jarayoni bilan emas, balki madaniy kodlar orqali ham shakllanadi. Lingvistik tadqiqotchilar, xususan, Wierzbicka (2006), antropomorfizmni **grammatik, semantik, pragmatik va stilistik turlarga** ajratadi[3]. Grammatik antropomorfizm fe'llar va otlar orqali hodisalarni insoniy harakatlar bilan bog'laydi (*"Shamol esyapti"*), semantik antropomorfizm esa ma'noni boyitadi va mavhum tushunchalarni, idrokni soddalashtiradi (*"Kitob meni chaqirdi"*). Pragmatik antropomorfizm nutq vaziyatiga bog'liq bo'lib, tinglovchiga tushunarli bo'lishi uchun ishlatiladi (*"Mening kompyuterim meni tushunmadi"*), stilistik antropomorfizm esa badiiy va adabiy matnlarda metafora va personifikatsiya orqali namoyon bo'ladi (*"Daraxt g'amgin qaradi"*). Shuningdek, adabiy manbalar lingvistik antropomorfizmning badiiy nutqda ijodiy imkoniyatlarini ochib beradi. Masalan, Pushkin va Shekspir asarlarida personifikatsiya va metaforik ifodalar orqali hodisalar va oyeqtlarga insoniy fazilatlar yuklangan. Bu esa nafaqat idrokni soddalashtiradi, balki matnni madaniy va badiiy jihatdan boyitadi. Umuman olganda, adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, lingvistik antropomorfizm – bu til, idrok va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi muhim vosita bo'lib, murakkab hodisalarni tushunishda, kommunikatsiyada va ijodiy nutqda keng qo'llaniladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot lingvistik antropomorfizm fenomenini chuqur anglashga qaratilgan bo'lib, metodologik yondashuv sifatida sifatli tahlil va matn lingvistikasiga asoslangan yondashuv tanlandi. Tadqiqotning markazida inson idroki,



tilning semantik tuzilishi va madaniy kontekstning o‘zaro bog‘liqligi yotadi. Shu sababli metodologiya ham lingvistik, ham kognitiv, ham madaniy nuqtayi nazarni birlashtiruvchi integrativ yondashuv asosida qurildi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, badiiy asarlar, publitsistik matnlar, mediatekstlar va kundalik nutqdan olingan real lingvistik birliklar to‘plandi. Ushbu materiallar antropomorfik ifodaning qo‘llanish konteksti, grammatik shakli, semantik tuzilishi va stilistik vazifasiga qarab tanlab olindi. Maqolada to‘plangan birliklar tizimli ravishda tahlil qilinib, antropomorfizmning grammatik, semantik, pragmatik va stilistik turlarini ajratish uchun lingvistik tasniflash usulidan foydalanildi. Tahlilning keyingi bosqichida konseptual metafora nazariyasi va kognitiv lingvistika tamoyillari asos qilib olinib, antropomorfik ifodalar inson idrok jarayonlarining konseptual modellari bilan bog‘liq ravishda sharhlanadi. Yakuniy bosqichda tahlil natijalari umumlashtirilib, lingvistik antropomorfizmning til tizimidagi funksional roli, uning kommunikativ va idrokiy ahamiyati bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarildi.

**Tahlil va natijalar.** Ushbu tadqiqot davomida lingvistik antropomorfizmning grammatik, semantik, pragmatik va stilistik turlari bo‘yicha kuzatuvlar olib borildi. Umuman olganda, tahlillar lingvistik antropomorfizmning til tizimida ko‘p qatlamli hodisa ekanini tasdiqladi. U grammatik, semantik, pragmatik va stilistik darajalarda turlicha funksiyalarni bajaradi: murakkab tushunchalarni soddalashtiradi, kommunikatsiyani qulaylashtiradi, tasviriylikni kuchaytiradi va inson idrokining antropomorfik mental modellarini til orqali ifodalaydi. Olingan natijalar antropomorfizmning til va ong o‘rtasidagi chuqur o‘zaro ta’sirni namoyon etuvchi muhim mexanizm ekanini ko‘rsatdi. Lingvistik antropomorfizm tilshunoslikda keng tadqiq qilingan hodisa bo‘lib, olimlar tomonidan turli mezonlar asosida tasniflangan. Tadqiqotlarda uning asosiy turlari — semantik, kognitiv, grammatik, pragmatik, stilistik va diskursiv — sifatida ajratilgan. Ushbu maqolada tasniflashda G.Lakoff va M.Johnson (1980), A.Wierzbicka (2006), R.Jakobson (1971), H.Clark (1996) hamda Ch.Bally kabi tadqiqotchilarning qarashlari asos qilib olindi.

1. Semantik antropomorfizm. J.Lakoff va M.Jonson (1980) bu turdagi antropomorfizmi konseptual metafora nazariyasi doirasida tahlil qilgan bo‘lib, u mavhum kategoriyalarni inson tushunadigan aksiyologik doiraga ko‘chirish imkonini beradi. A.Wierzbicka (2006) esa semantik antropomorfizmning madaniy kontekstga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Semantik antropomorfizmda mavhum tushunchalarga insoniy niyat yoki hissiyot yuklanadi: *“Taqdir meni sinadi”*, *“Vaqt jarohatlarni davolaydi”*, *“Tarix adolatni unutmaydi”*. Bunday ifodalar murakkab abstraksiyalarni idrokiy jihatdan yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Tahlil ko‘rsatishicha, semantik antropomorfizm insonning mavhum tushunchalarni talqin qilishda psixologik model sifatida “insoniylashtirish” strategiyasidan foydalanishini tasdiqlaydi.

2. Kognitiv/konseptual antropomorfizm. Kognitiv antropomorfizm insonning dunyoni tushunish yo‘llari, ya’ni tashqi hodisalarni o‘z tajribasi asosida talqin qilish mexanizmlari



bilan bog‘liq. R.Langacker va Barsalou kabi olimlar bu turdagi antropomorfizmni idrok jarayonlaridagi konseptual modellar bilan izohlashadi. U inson miyasining jonsiz hodisalarni ham tirik mavjudot sifatida qabul qilish xususiyatini aks ettiradi.

3. Grammatik antropomorfizm. R.Jakobson (1971) va Ch.Bally (stilistika nazariyasi) bu turdagi antropomorfizmni tilning subyektivlik va semantik universalialar doirasida o‘rganishgan. Grammatik antropomorfizm misollarida jonsiz hodisalarga insoniy harakat fe’llarining yuklanishi kuzatildi: *“Shamol g‘azablanib uvilladi”*, *“Quyosh bizga kulib boqdi”*. Ushbu ifodalar til egasining tabiat hodisalarini jonli subyekt sifatida idrok etish tendensiyasini ko‘rsatadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, bunday strukturalar inson ongingning agentlikka asoslangan mental modellarini faollashtiradi va jonsiz obyektlarni tushunishni soddalashtiradi.

4. Pragmatik antropomorfizm. H.Clark (1996) va Brown hamda Levinson (1987) bunday antropomorfizatsiyani kommunikativ soddalashtirish vositasi sifatida talqin qiladilar. Pragmatik antropomorfizm kundalik muloqotda kommunikativ qulaylik yaratish uchun qo‘llanadi. Masalan, *“Kompyuter bugun injiqlik qilyapti”*, *“Telefonim meni eshitmayapti”* kabi ifodalarda texnik nosozlikni izohlash jarayoni soddalashtiriladi. Bunda antropomorfik ko‘rinish suhbatdoshga vaziyatni tez va qulay tarzda tushuntirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

5. Stilistik antropomorfizm. V.Shklovskiy va A.Potebnya bu turdagi antropomorfizmni badiiy obraz va metafora yaratish vositasi sifatida tahlil qilgan. Stilistik antropomorfizm esa badiiy matnlarda tasviriylikni kuchaytiradi. *“Osmonga qora bulutlar xafa bo‘lib yig‘lab keldi”*, *“Tungi shahar menga sirli nigoh tashladi”*, *“Ko‘hna daryo hikoya boshladi”* kabi misollar estetik obraz yaratishning samarali vositasi bo‘lib, o‘quvchi ongida jonli tasvirlar hosil qiladi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, bunday antropomorfizmlar matnning emosional ta’sirchanligini oshiradi va muallifga keng stilistik imkoniyat beradi.

6. Diskursiv antropomorfizm. Diskursiv antropomorfizm ijtimoiy institutlar yoki g‘oyalarni inson xatti-harakati sifatida tasvirlashni o‘z ichiga oladi: *“Davlat bizdan talqin so‘rayapti”*, *“Bozor talab qiladi”*. Teun A. van Dijk va Norman Fairclough bu turdagi antropomorfizmni diskurs tahlili va ideologik kontekst bilan bog‘liq holda o‘rganishgan.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot lingvistik antropomorfizm turlarini o‘rganish orqali til va ong o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, grammatik va semantik antropomorfizm mavhum yoki jonsiz tushunchalarni inson tushunadigan shaklga keltiradi, pragmatik antropomorfizm nutq vaziyati va kommunikativ ehtiyojlarni osonlashtiradi, stilistik antropomorfizm esa badiiy matnning obrazlilik va emosional ta’sirini oshiradi. Shu bilan birga, antropomorfik birliklarning ishlatilishi madaniy kontekstga bog‘liq bo‘lib, til va idrokning o‘zaro aloqadorligini tasdiqlaydi. Diskursiv antropomorfizm til orqali ijtimoiy voqealarni *“insoniylashtirish”*, ularni qabul qilishni osonlashtirish va auditoriyada subyektiv tajriba hosil qilish imkonini beradi.



## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press, 1980.
2. Wierzbicka, A. *Languages and Cultures: A Semantic Perspective*. Oxford University Press, 2006.
3. Jakobson, R. *Selected Writings, Vol. 1: Phonological Studies*. The Hague: Mouton, 1971.
4. Clark, H. H. *Using Language*. Cambridge University Press, 1996.
5. Bally, Ch. *Linguistique générale et linguistique française*. Paris: Payot, 1968.
6. Shklovsky, V. *Theory of Prose*. Dalkey Archive Press, 1990.
7. Potebnya, A. *Language and Thought*. Harvard University Press, 1974.
8. Brown, P., & Levinson, S.C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press, 1987.
9. Van Dijk, T.A. *Discourse as Structure and Process*. Sage Publications, 1997.

